

## KASBIY KONTEKSTDAGI MASALA YECHISHDA O'QUVCHINING AQLIY FAOLIYATI

Astonayeva Yulduz Toshpulatovna  
Yusupboyeva Qunduz O'lmas qizi

Qorovulbozor tumani kasb-hunar maktabi Matematika fani  
o'qituvchilari

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10532805>

### ARTICLE INFO

Received: 13<sup>th</sup> January 2024

Accepted: 18<sup>th</sup> January 2024

Online: 19<sup>th</sup> January 2024

### KEY WORDS

### ABSTRACT

#### **Kasbga yo'naltirish kursining predmeti, maqsadi va vazifalari.**

"Matematika fanini kasbga yo'naltirib o'qitish" kursi matematika o'qituvchisini kasbiy tayyorlashning umumiy tizimidagi asosiy fanlardan biridir. U talabalarga matematika o'qitish jarayonining asosiy qonuniyatlarini, metodlari va vositalarini, shuningdek matematikani boshqa fan asoslari bilan aloqadorlik xususiyatini o'rgatadi.

Asosiy **maqsadi** - bo'lg'usi matematika o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini shakllantirish va rivojlantirish hamda metodik ko'nikma va malakalarini hosil qilishdan iboratdir.

"Matematika fanini kasbga yo'naltirib o'qitish"fanining **vazifikasi** - talabalarni umumiy o'rta ta'lim mifik, akademik litsey, kasb-hunar kollejlarining matematika fani bo'yicha o'quv dasturlari va ularning tarkibi bilan tanishtiribgina qolmay, ularni o'quvchilar, talabalar ongiga singdirish va amaliyotda foydalanish metodlari, texnologiyalari bilan tanishtirishdir. Bunda har bir talaba o'qituvchilik faoliyatida foydalanish zarur bo'lgan barcha yo'l-yo'riqlar, pedagogik dalillar, ayrim mavzularni darsda o'tish, o'quvchilarga o'rgatish, darsda ko'rsatma materiallar, texnik vositalar, test reytinglar va hokazolardan foydalanish metodlari bilan tanishadilar hamda amalda sinab ko'radilar.

"Matematika fanini kasbga yo'naltirib o'qitish" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida

#### **Talaba:**

-matematika aniq bir bilim sohasi va turli sohalarga chuqur kirib borayotgan universal vosita ekanligi; amaliy va fundamental matematikani zamonaviy o'qitish tizimlari va uning amalda kasbiy qo'llanilishini ta'minlashi va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish masalasiga yordam berishi; matematik bilim ayniqsa yaratuvchilik kasbini egallayotganlar uchun muhim bo'lgani holda fikrash madaniyati tarkibidagi qat'iylik, aniqlik, izchillik, mantiqiylilik va asoslanish singari qirralarning shakllanishiga xizmat qilishi **haqida tasavvurga ega bo'lishi;**



-matematika fanini kasbga yo'naltirib o'qitish jarayoninida kasbiy faoliyatida; matematika mantiqiy fikrlashning keng rivojini belgilashi hamda keyingi faoliyat uchun bazaviy ko'nikmalar (rejalash, sinov natijalarini tahlil etish, matematik modellar qurish va tadqiq etish, optimallashtirish va hokazolarni) shakllantirishini; mutaxassisda matematikaning boshqa predmetlar bilan o'zaro aloqadorligi **bilishi va amalda qo'llay olishi**;

kasbga yo'naltirib o'qitishning pedagogik va psixologik asoslari; tenglama va tengsizliklarni o'qitishda kasbga yo'naltira olish; yasashga doir masalalarni yechish orqali o'quvchilarni kasbga yo'naltirishlar; matnli masalalarni yechish orqali o'quvchilarni kasbga yo'naltirishlar; harakat, o'xshash almashtirish, gomotetiyaga doir masalarni yechishda kasbga yo'naltirish; differentsiyal va integral hisobning tatbiqlari; matematik analiz, algebra va sonlar nazariyasi, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika fanlarining ba'zi tatbiqiy masalalarini yechish **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak**.

Umumta'lim maktab o'quvchilarini kasb tanlashga yo'llash ishlarini tashkil etishda kasbiy tushunchalar berish, kasb-hunarga yo'llash tizimi, hamda bosqichlarini tanlab olish muhim ahamiyatga ega. Bunda maktab rahbariyati oldida o'quvchilarning kasbiy qiziqishlarini o'rganish, har bir fan o'qituvchisi darslarda o'quvchilarga mavzuga bog'lagan holda kasbiy tushunchalar berib borishi, natijaviy xulosalarga ko'ra kasb tanlashga yo'llash ishlarini tashkil etishi kerak bo'ladi.

O'quvchi yoshlarda kasb tanlashga munosabatning shakllanish jarayonini yanada chuqurroq tahlil qilish va uning o'ziga xos bo'lgan ijtimoiy psixologik xususiyatlarni aniqlashga yo'naltirilgan tadqiqotlar asosida ochib berish, bugungi kunda ta'lim-tarbiya muassasalari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir.

## **1.2. Kasb tanlash imkoniyatlari**

Kasb tanlashga inson hayotidagi eng muhim masala hisoblanadi. Chunki, har bir kishi real turmushda biror kasb-hunarni mukammal egallab, yetuk mutaxassis bo'lishi zaruriy holdir. Bu - insonning kasb-hunar bilan bog'liq bolalikdagi his tuyg'ulari, orzu-hayollari yoshga xos psixologik xususiyat bilan bog'liq bo'lib, bolalikdagi kasb-hunarga yoki mutaxassislik uchun zarur bilim, shaxs sifatlari va boshqa talablar e'tiborga olinmaydi. Inson orzularining reallikka aylanishi esa unda mas'uliyat va javobgarlik tuyg'usini paydo qiladi.

Har qalay, o'smirlik yoshida kasb tanlash yetakchi faoliyat sanaladi. O'quvchi-yoshlar ertangi taqdiri haqida o'yashga majbur. Chunki ular oldida jiddiy hayotiy masala hisoblanmish kasb-hunar tanlash muammosi turadi. Ular kasb-hunar sohalarining ahamiyatli jihatlariga alohida e'tibor qarata boshlaydilar. Shu bois ham, ularning yoshlik davridagi o'zgarishlar kasb tanlash va kasbning ahamiyatiga chuqur nazar solishga olib keladi. Bu esa ularning hayotda o'z o'rnini topish majburiyatini ko'ndalang qo'yadi. Kasb tanlash va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni bir necha turga ajratish mumkin. Ko'pincha kasb tanlash motivlari shakllanishi quyidagilarga bog'liqliq bo'ladi:

- ota – ona (da'vati, kasb- kori, istak-xohishi);
- o'qituvchi;
- o'rtoqlari;
- tasodifiy tanlash;
- kasb-hunar to'g'risida to'liq ma'lumotga egalik;



kasbga qiziqish;  
mashg'ur kishilarhayoti;  
kasbning jamiyatdagi nufuzi;  
kasb egalariga xos xususiyatlarni o'zida kuzatish va boshqalar.

### **1.3. Kasbga yo'naltirish o'quv kursining tayanch tushunchalari**

Kasb tanlashga yo'llash (proforentatsiya) – atamasi: yo'naltirish, ajrata bilish, belgilash xayotda to'g'ri yo'lni tanlash degan ma'noni bildiradi.

Kasb tanlashga yo'llash tushunchasi esa o'quvchi yoshlarni ongli to'g'ri va erkin kasb tanlashga, kasblar, hunarlarning mehnat yo'lini tug'ri belgilashga qaratilgan muayyan pedagogik ishni ifoda etadi.

Kasb so'zining ma'nosini – bu insonlarning hunari, faoliyat turi va xayot kechirishlari uchun manba xizmatini o'taydigan mashg'ulotni bildiradi.

Kasbga yo'naltirish ishlarini mohiyati esa - yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashda uni har tomonlama va barkamol rivojlantirishning shart-sharoitdir.

Kasbga yo'naltirish – bu o'quvchining o'z ehtiyojini oqilona cheklaydigan shaxs sifatida barkamol kamolotga yetishishining pedagogik jarayoni hisoblanib, u pedagogik tashqi ijtimoiy bog'liq bo'lgan tafakkuri va hatti-harakatlarini ongli ravishda o'z-o'zini boshqaruvchidir.

Kasbiy axborot – bu:

yoshlarni zamonaviy ishlab chikarish turlari va kasblari;  
xo'jalik majmuasining malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlar;  
kasb bozorining kelajakdagi rivojlanishi;  
kasblarni o'zlashtirishning shart-sharoitlari;  
mehnat faoliyati jarayonida kasbiy malakaviy o'sish;  
o'z-o'zini takomillashtirish imkoniyatlari bilan doimiy ravishda tanishtirishdan iboratdir.

Kasbiy maslahat - yoshlarning pedagogik psixologik xususiyatlari va imkoniyatlari hamda jamiyatning ehtiyojlarini xisobga olgan holda kasbiy yo'lini tanlash bo'yicha ongli ravishda qaror qabul qilish maqsadida kasbiy o'zligini aniqlashda yordam ko'rsatish.

### **2.1 Kasbga yo'naltirishning pedagogik va psixologik nazariy asoslari**

Bizga ma'lumki jamiyat a'zolari biror kasb egasi bo'lishi orqali o'z hayot faoliyatini olib boradi bunda moddiy va ma'naviy boyliklar orttiradi. Bu jarayonda kasb muhim ahamiyatga ega bo'lib inson turmush-tarzining asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Ba'zi insonlar uchun kasb asosiy o'rinda bo'lsa ba'zilar uchun esa oila, do'stlar kabi boshqa ma'naviy tushunchalar asosiy o'ringa qo'yiladi.

Kasb albatta hunar tushunchasi bilan bir qatorda ta'lim tushunchasi bilan ham bog'liq va bu tushunchalar qadimdan mavjud bo'lib ular haqida Forobiyning "Agar kasb-hunar fazilati tug'ma bo'lganda, podshohlar ham o'zлari istab va harakat qilib emas, balki podshohlik ularga faqat tabiiy ravishda tuyassar bo'lgan, tabiat talab qilgan tabiiy bir majburiyat bo'lib qolar edi. Kasb-hunar fazilati tug'ma bo'lmas ekan, xalqlar va shahar ahllarida, odob-ahloq, rasm-rusm, kasb-hunar, odat va irodani hosil qilishi uchun insondagi zo'r kuch va qudrat talab qilinadi. Bu ikki yo'l bilan: ya'ni ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi. Ta'lim degan so'z



xalqlar shaharlar o'rtaida nazariy fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlari birlashtirish degan so'zdir" fikrini keltirish mumkin.

Kasb hunarni egallash qay darajada muhim ekanligi haqida Abu Ali ibn Sinoning yozgan asarlarida ham ko'rish mumkin. Uning fikricha bolaga yoshligidan biror kasb-hunarni o'rgatish lozim. Bola kasb-hunarni ma'lum darajada o'zlashtirib bo'lgandan so'ng o'z kasb-hunaridan hayotda foydalanish, ya'ni halol mehnat bilan mustaqil hayot kechirishga o'rgatish kerak.

"Yoshlarga ilm bera borib, ularga hunar o'rgatmoq muhim ma'suliyatli ishdir. Hunar o'rganish birla yoshlar har qanday nojo'ya hatti-harakatlardan holi bo'ladilar".



1 - chizma

Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining kasbga yo'naltirishda kasbiy qobiliyat, layoqat, qiziqish, moyilliklari va kasbiy yaroqlilikni hisobga olish ham zarur bo'ladi.

Bizga psixologiya kursidan ma'lumki, qobiliyat - inson ruhiyatining xususiyati hisoblanib, u barcha psixik jarayonlar va holatlarning yig'indisidan iborat bo'ladi.


Insonda qobiliyat bo'lsada, unda bilim bo'lmasa, u holda u o'zini to'la namoyon qila olmaydi.

Bu borada tadqiqotlar olib borgan rossiya olimi B.M.Teplov: "qobiliyatlar shaxsning individual psixologik xususiyati bo'lib, unga bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni o'zlashtirilishining to'liqligi, tezligi, yengilligi, chuqurligi hamda turli faoliyatni o'zlashtirish va uni muvafaqqiyatli bajarishga bog'liqdir" – degan xulosaga kelgan. Uning fikricha "qobiliyatlar" tushunchasi o'z ichiga quyidagi 3 ta g'oyani qamrab oldi:

Qobiliyatlar bu - bir insonlarni bir-biridan ajratib turadigan individual psixologik xususiyatlar.

Qobiliyat bu - har qanday individual psixologik xususiyatni emas, balki biror bir faoliyatni muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlovchi xususiyat.

Qobiliyatlar insonning bilim, ko'nikma va malakalaridan iborat emas. Shuning uchun ular insonning bilim, malaka va ko'nikmalariga tenglashtirmsligi kerak.



2-chizma. Kasbga yo'naltirishda o'quvchilarining e'tiborga olish lozim bo'lgan jihatlari

### References:

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T. "O'zbekiston" 2016y.
2. Mirziyoev Sh.M. "Taqnidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" T. "O'zbekiston" 2016 y.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" qonuni. T - 2020 y.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 yanvardagi «Umumiyl o'rta, o'rta maxsus va professional ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5313-sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-ton Farmoni
6. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari /O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakulteti tinglovchilari, akademik litseyva kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar.-T.: TDPU, 2004.
7. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S. Ilg'or Kasb texnologiyalar.-T.: O'qituvchi, 2004.



8. Kasba:1000 ta savolga 1000 ta javob / Met.qo'l. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Inog'omova.-T.:Nizomiy nomidagi TDPU,2012. -193b.
9. Tolipov O', Usmonboyeva M. Kasb texnologiyalarning tadbiqiy asoslari-T.: 2006.
10. AlbertR.S., RuncoM.A. Theoriesof creativity.-London:NewburyPark, 1990.
11. AlbertR.S., RuncoM.A.AHistory ofResearchon Creativity. -Cambridge: Cambridge Universitypress, 1999. Pp.16-31.
12. Amabile, T.M.Withinyou, withoutyou: Thesoci alpsychology ofcreativity, andbeyond. - London:NY,1990.Pp. 61-91.